

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"Global Prospects for Multidisciplinary Research and Education"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 07-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan



PROCEEDINGS BOOK

Volume - 4

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov

Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev

Mutabar Meylieva

Kibrio Burieva

ISBN: 979-8-89695-061-5



PROCEEDINGS BOOK

Volume-4

Science Uzbekistan

INTERNATIONAL

CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV

"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

April 08-10, 2025 / Chirchik, Uzbekistan

**Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated
December 27, 2024**

Editors

Prof. Dr. Jabbor Usarov
Prof. Dr. Dostnazar Khimmataliev
Mutabar Meylieva
Kibrio Burieva

30.04.2025

by Liberty Academic Publishers, New York, USA
ALL RIGHTS RESERVED NO PART OF THIS BOOK MAY BE REPRODUCED IN ANY FORM, BY
PHOTOCOPYING OR BY ANY ELECTRONIC OR MECHANICAL MEANS, INCLUDING
INFORMATION STORAGE OR RETRIEVAL SYSTEMS, WITHOUT PERMISSION IN WRITING
FROM BOTH THE COPYRIGHT OWNER AND THE PUBLISHER OF THIS BOOK.

© Liberty Academic Publishers 2025
The digital PDF version of this title is available Open Access and distributed under the terms of the
Creative Commons Attribution-Non Commercial 4.0 license (<http://creativecommons.org/licenses/by-nc/4.0/>) which permits adaptation, alteration, reproduction and distribution for
noncommercial use, without further permission provided the original work is attributed. The
derivative works do not need to be licensed on the same terms.
adopted by Mariam Rasulan

ISBN: 979-8-89695-061-5

INTERNATIONAL
CONGRESS ON MODERN SCIENCES-IV
"GLOBAL PROSPECTS FOR MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND EDUCATION"
 Based on Order No. 490 of the Minister of Higher Education, Science and Innovation dated December 27, 2024

Meyliyeva Mutabar Sayfullayevna	
OPTIMIZING STUDENTS' CREATIVE ABILITIES THROUGH AN INDIVIDUAL APPROACH	805
To‘xtayeva Jasmina Bobomurod qizi, Suleymanova Arujan Bauirjan qizi, Safarboeva Sevara Sultonboy qizi, Ergasheva Mazluma maxmud qizi, Yuldasheva S.M	806
KASBIY FAOLIYATINI DIFFERENSIAL PSIXOLOGIK DIAGNOSTIKASI VA UNGA XOS XUSUSIYATLAR Xamitova Zebiniso Baxtiyor qizi, Xoshimova Saodat Umirkbek qizi, Eshqobilova Sevara Farxod qizi, Yangiboeva Xilola Xamid qizi, Qobulova ShaxzodaAnvar qizi, Yuldasheva S.M	808
MAVLONO JALOLIDDIN RUMIYNING “ICHINGDAGI ICHINGDADIR” FALSAFIY-MA'RIFIY ASARINING INSONNING O'ZLIGINI ANGLASHDAGI ROLI Umarova Shohida Absalomovna, Musaqulova Laylo Alisher qizi Tolipova Ozodaxon Xursanali qizi, Uzoqova Dilrabo Tursunovna	810
AKSELERATSIYA JARAYONINING INSON PSIXIKASIGA TA'SIRI Umarova Shohida Absalomovna, Egamberdiyeva Gulasal Xurshid qizi Boyto‘rayeva Zulfiya Zoyirjon qizi, Gofforova Marg’iyona Sayfiddin qizi	814
IJODIY JARAYON VA ONG OSTI: SAN'AT ORQALI INSONNING ICHKI DUNYOSINI ANGLASH Umarova Shohida Absalomovna, Oydinova Muslima Alisher qizi Pardayeva O‘g’iloy Baytiyorov qizi, Jalilova Sabrina Yashin qizi	817
TASHQI MEHNAT MIGRANT OILALARIDA QADRIYATLAR O‘ZGARISHINING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI	

ostidan yuzaga chiqadigan hissiy kechinmalar va xotiralar san'at orqali materializatsiya qilinadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda eksperimental metodlardan foydalangan holda ijodiy jarayon va ong osti o'rtaqidagi bog'liqlikni yanada chuqurroq o'rganish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bowlby, J. (1969). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment. New York: Basic Books.
2. Piaget, J. (1952). The Origins of Intelligence in Children. International Universities Press.
3. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
4. "Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya" Z.T.Nishanova, N.G.Komilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "O'zbekiston faylasuflari miliy jamiyati" nashriyoti.Toshkent-2018
5. "Rivojlanish psixologiyasi" fanidan ma'ruzalar matni Jo'rayev O'tkir Toshpo'latovich
6. "Umumiyl psixologiya" G'oziyev.E "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" 2010
7. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T.: O`qituvchi, 66-bet
8. O'zbek pedagogikasi antologiyasi // Tuzuvchi-mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil. – Toshkent: O`qituvchi, 1995. – 137-bet
9. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). Rahbar va xodim munosabatlarining boshqaruv jarayonidagi psixologik xususiyatlari. Образование наука и инновационные идеи в мире, 41(1), 110–113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>

TASHQI MEHNAT MIGRANT OILALARIDA QADRIYATLAR O'ZGARISHINING IJTIMOIY -PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Umarova Shohida Absalomovna

CHDPU Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

umarovashohida018@gmail.com

Oyдинова Мусима Алишер қизи

CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi 24/1

muslimaoydinova@gmail.com

Pardayeva O'g'iloy Baytiyorov қизи

CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi 24/1

pardayevao500@gmail.com

Jalilova Sabrina Yashin қизи

CHDPU Psixologiya kafedrasi talabasi 24/2

jalilovasabrina84@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot tashqi mehnat migratsiyasiga duchor bo'lgan oilalarda an'anaviy qadriyatlar tizimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qiladi. Migrant oilalar uchun kengaygan global migratsiya jarayonlari oila a'zolarining psixologik holati, ijtimoiy munosabatlari va madaniy identifikatsiyasida izchil o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, migratsiya oila ichidagi gender rollari, bolalar tarbiyasi, ma'naviyat va oilaviy birdamlik kabi qadriyatlarni deformatsiyalashuviga olib keladi. Bu jarayon migratsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari, jumladan, moddiy qiyinchiliklar, huquqiy himoyaning etishmasligi va ijtimoiy reintegratsiya muammolari bilan chambarchas bog'liq. Maqlada, shuningdek, O'zbekiston kontekstida migrant oilalarni qo'llab-quvvatlashning hukumat siyosati va ijtimoiy dasturlar samaradorligi baholanadi.

Kalit so'zlar: Tashqi mehnat migratsiyasi, oilaviy qadriyatlar, ijtimoiy-psixologik determinantlar, migratsiya oqibatlari, O'zbekiston, oila deformatsiyas.

Аннотация: В исследовании анализируются социально-психологические факторы, влияющие на изменение традиционной системы ценностей в семьях, подверженных внешней трудовой миграции. Для семей мигрантов расширенные глобальные миграционные процессы приносят последовательные изменения в психологическом состоянии, социальных отношениях и

культурной идентификации членов семьи. Результаты исследования показывают, что миграция приводит к деформации таких ценностей, как гендерные роли, воспитание детей, духовность и семейное единство внутри семьи. Этот процесс тесно связан с социально-экономическими причинами миграции, включая финансовые трудности, отсутствие правовой защиты и проблемы социальной реинтеграции. В статье также оценивается эффективность государственной политики и социальных программ по поддержке семей мигрантов в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Внешняя трудовая миграция, семейные ценности, социально-психологические детерминанты, последствия миграции, Узбекистан, семейные деформации.

Annotation: This study analyzes the socio-psychological factors influencing the change of the traditional value system in families exposed to external labor migration. For migrant families, extended global migration processes bring consistent changes in the psychological state, social relations, and cultural identification of family members. The results of the study show that migration leads to the deformation of values such as gender roles, child rearing, spirituality and family unity within the family. This process is closely related to socio-economic reasons of migration, including financial difficulties, lack of legal protection and problems of social reintegration. The article also evaluates the effectiveness of government policies and social programs to support migrant families in the context of Uzbekistan.

Key words: Foreign labor migration, family values, socio-psychological determinants, consequences of migration, Uzbekistan, family deformations.

Kirish

XXI asrda global migratsiya jarayonlari O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy tuzilmalarning tub o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Aholining 34% dan ortig‘i yoshlar tashkil etgan O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi oilalar uchun moddiy barqarorlik manbai bo‘lsa-da, uzoq muddatli psixologik va ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Migrant oilalarda qadriyatlar o‘zgarishi, asosan, quyidagi determinantlar bilan bog‘liq:

1. Oila a’zolarining uzoq muddatli ajralishi – bu bolalarning tarbiyasida ota-onasini figurasi yetishmasligi, nikoh munosabatlarining susayishi.

2. Madaniy moslashuv stressi – yangi muhitda mehnat qiluvchi migrantlarning an’anaviy qadriyatlarni saqlash va yangi norma bilan muvozanatlashtirishga urinishi.

3. Ijtimoiy himoyaning etishmasligi – migrantlarning huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar va sug‘urta tizimlarining noyetarligi . So‘nggi yillarda O‘zbekistonda migratsiya siyosatiga gumanitar jihatdan alohida e’tibor berilmoxda. Bugungi kunda mamlakatimizda fuqarolar uchun migratsiya jarayoni xavfsiz, qonuniy va qulay bo‘lishiga qaratilgan o‘ziga xos mexanizm ishlab chiqilgan bo‘lib, u uchta asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

1. Fuqarolarni chet elda vaqtincha mehnat migranti sifatida chiqishiga tayyorlash, ularga til o‘rgatish va kasbiy mahoratlarini rivojlantirish;

2. Chet elda mehnat migranti sifatida bo‘lib turgan hamyurlarimizning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish;

3. Mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ish bilan ta’minalash, ularni ijtimoiy reintegratsiya qilish, xususan, ijtimoiy muhitga moslashishi uchun sharoit yaratish. Migratsiya siyosatining samaradorligi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga bog‘liq, xususan, aholini ish bilan ta’minalash masalalari, ayniqsa, ishchi kuchi ortiqcha bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ahamiyatlidir. Shunga qaramay, migratsiyaning turli shakllari mavjud bo‘lib, migratsiya jarayonlari kompleks yondashuvni talab qiluvchi bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Migratsiya rivojlangan mamlakatlar uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham muammolar tug‘diradi.

Rivojlangan mamlakatlar migrantlarning o‘z hududlarida bo‘lish davrida xavfsizligini ta’minalashi kerak. Migratsiya umumiy holda qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Shu bilan birga, ko‘p hollarda migrantlar oqimining ko‘payishi millatlararo nizolarning kuchayishi xavfini oshiradi. Bundan tashqari, noqonuniy migratsiya holatlari ham kam emas, bu esa jinoyatchilikning o‘sishiga olib keladi

Rivojlanayotgan mamlakatlar migrantlarni boshqa mamlakatga ketishidan oldin tayyorlab, ularning moslashuvini osonlashtirish va xavfsizligini ta’minalashga e’tibor qaratishi lozim, birinchi navbatda, ularning ehtimoliy xavf va tahdidlar haqida xabardorligini oshirish, inson savdosi qurbaniga aylanish xavfining oldini olish orqali

Shunday qilib, migratsiya umumiy holda ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotiga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Biroq, migratsiya siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda ish bilan ta'minlash masalalarini hal qilish, shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda ishchi kuchi yetishmasligini to'ldirish vazifasini bajarishi bilan birga, o'zi migrantlar uchun xavf tug'dirmasligi kerak. Shu bilan birga, migratsiya siyosatini shakllantirishda gender jihatlarini hisobga olish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Ushbu masalaning alohida ahamiyati O'zbekiston uchun, ya'ni Markaziy Osiyoning eng zich aholiga ega mamlakatlaridan biri bo'lgan va aholisining katta qismini yoshlar tashkil etuvchi davlat uchun muhimdir. Bu yerda migratsiya jarayonlari jadal kengayib bormoqda va O'zbekistondan boshqa davlatlarga mehnat migrantlari oqimi asta-sekin o'sib bormoqda. Zamonaviy dunyoda migratsiya global jarayon sifatida tobora keng tarqalmoqda. O'zbekistondan tashqi mehnat migratsiyasi, ayniqsa, yoshlar va ayollar orasida keng tarqalgan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik o'zgarishlarni ham keltirib chiqaradi. Migrant oilalarida qadriyatlar tizimining o'zgarishi bu o'zgarishlarning muhim jihatlaridan biridir. Ushbu maqolada tashqi mehnat migrant oilalarida qadriyatlar o'zgarishining ijtimoiy va psixologik determinantlari tahlil qilinadi.

Migratsiya jarayoni odamlarning hayot tarzi, madaniyati va qadriyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Migrantlar yangi muhitga moslashish jarayonida o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'ladi. Bu jarayon ijtimoiy va psixologik omillar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, migratsiya oila a'zolarining o'rtaisdagi munosabatlarni o'zgartiradi, bolalarning tarbiyasi va ijtimoiylashuvi muammolarini keltirib chiqaradi.

Toshqin migratsiyasi natijasida migrantlarning oila a'zolari, ayniqsa, farzandlari va o'rtoqlari orasida turmush o'rtoqlari hayotining o'zaro ta'siri. Migratsiya iqtisodiy, balki ijtimoiy va tibbiy yordam ham oilaga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu o'ziga xos madaniy determinantlari – ya'ni sababchi – ta'siri, uzoq vaqt ajratilishi, iqtisodiy holatning o'zgarishi, aloqadagi munosabatlardagi transformatsiyalar va boshqalar bo'lishi mumkin.

Tashqi mehnat migratsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham chuqur ta'sir ko'rsatadi. Migrant oilalarida qadriyatlar o'zgarishi ularning hayot tarzi, munosabatlari va jamiyatga moslashuvi bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayon hisoblanadi. Quyida ushbu o'zgarishlarning ijtimoiy-psixologik determinantlari tahlil qilinadi:

Ijtimoiy Muhitning O'zgarishi

Migrantlar yangi muhitda ijtimoiy tarmoqlarni qayta shakllantirishga majbur bo'lishadi. Bu jarayon ularning an'anaviy qadriyatlarini o'zgartirishi mumkin. Yangi muhitda ular o'zlarini izolyatsiya qilingan his qilishi yoki yangi madaniyatga moslashishga intilishi mumkin.

Migrantlar oilalari ko'pincha o'zlarining madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga intilishadi, ammo bolalar yangi muhitga tezroq moslashib, ota-onalari bilan madaniy farqlar paydo bo'lishiga olib keladi. Bu "akkulturatsiya farqi" deb ataladi va oila ichidagi munosabatlarni murakkablashtiradi.

Migratsiya jarayonlari global iqtisodiyotning asosiy omillaridan biridir. Migrantlar nafaqat o'z oilalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, balki donnor mamlakatlar (masalan, O'zbekiston) va qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ham katta hissa qo'shami. Migrantlarning pul o'tkazmalari Markaziy Osiyo mamlakatlarida valyuta tushumlarining katta qismini tashkil qiladi. Migratsiya siyosatining samaradorligi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga bog'liq. Bu masala, ayniqsa, ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish va aholining turmush darajasini oshirish kabi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi

Psixologik Stress va Moslashish

Migratsiya jarayoni ko'pincha katta psixologik stressni keltirib chiqaradi. Migrantlar yangi muhitda o'zlarini begona his qilishi, til va madaniy to'siqlar bilan kurashishi mumkin. Bu ularning qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalar, ayniqsa, ota-onalarining yo'qligida ijtimoiy va psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirishi mumkin. Bu ularning shaxsiy qadriyatlarini shakllantirishiga ta'sir qiladi.

Psixologik Stress: Migratsiya jarayoni migrantlar va ularning oila a'zolari uchun katta psixologik stress keltirib chiqaradi. Bu esa ularning qadriyatlarini o'zgartirishiga olib keladi.

Madaniy Shok: Yangi muhitga moslashish jarayoni migrantlar uchun qiyin bo'lib, ularning qadriyatlarini o'zgartirishiga sabab bo'ladi. Masalan, ayollar yangi ijtimoiy rollarni qabul qilishga majbur bo'ladi.

O'zgarishlar va Qadriyatlar

Migrantlar ko'pincha moliyaviy yaxshilanish uchun chet elga ketishadi. Bu ularning oilaviy qadriyatlarni o'zgartirishi mumkin. Masalan, moddiy boylikka bo'lgan e'tibor ortishi yoki oilaviy mas'uliyatlarning qayta taqsimlanishi kuzatilishi mumkin. Migrantlar pul o'tkazmalari orqali oilalarini qo'llab-quvvatlashadi, bu esa ularning oilaviy qadriyatlarni mustahkamlaydi. Biroq, ba'zida bu jarayon oila a'zolari o'rtaida nizo va notenglikni keltirib chiqarishi mumkin. Migrantlar yangi muhitda o'zlarining madaniy va diniy qadriyatlarni saqlashga intilishadi, ammo bolalar yangi muhitga moslashishga moyil bo'lismadi. Bu oila ichida madaniy va avtoritar qadriyatlarning o'zgarishiga olib keladi. Ayrim hollarda, migrantlar yangi muhitda o'zlarining diniy e'tiqodlarini mustahkamlaydi, bu esa ularning qadriyatlarni tizimiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Migrantlar va ularning oilalari ko'pincha ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlash tizimlaridan chetda qolishadi. Bu ularning qadriyatlarni tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlatlar tomonidan migratsiya siyosatini takomillashtirish, migrantlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash ularning qadriyatlarni tizimini mustahkamlashga yordam beradi.

Oilaviy Munosabatlarning O'zgarishi

Migratsiya jarayoni oilaviy munosabatlarni o'zgartirishi mumkin. Masalan, ota-onalarning yo'qligi bolalarning tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadi, bu esa ularning qadriyatlarni shakllantirishiga ta'sir qiladi. Migrantlar va ularning oilalari o'rtaida aloqa ko'pincha cheklangan bo'ladi, bu esa oilaviy munosabatlarni zaiflashtiradi.

Migratsiya jarayoni gender qadriyatlari va rollarini o'zgartirishi mumkin. Masalan, ayollar migratsiya jarayonida mustaqil bo'lishi yoki oilaviy mas'uliyatlarni qayta taqsimlashi mumkin. Ayrim hollarda, migratsiya ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilashi mumkin, bu esa ularning qadriyatlarni tizimiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda migratsiya siyosatiga gumanitar jihatdan alohida e'tibor berilmoqda. Migrantlarni chet elda vaqtincha mehnat migrant sifatida chiqishiga tayyorlash, ularga til o'rgatish va kasbiy mahoratlarini rivojlantirish kabi chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Migratsiya siyosatini shakllantirishda gender jihatlarini hisobga olish muhim yo'nalishga aylanmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar

Migratsiya masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik muammolarni hal qilishga yordam beradi. Bu tadqiqotlar migratsiya siyosatini takomillashtirish, migrantlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Migrantlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash, ularning qadriyatlarni tizimini mustahkamlash va ijtimoiy integratsiyani osonlashtirish uchun samarali siyosatlar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa

Tashqi mehnat migratsiyasi migrant oilalarida qadriyatlarni o'zgarishining ijtimoiy-psixologik determinantlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ijtimoiy muhit, psixologik stress, iqtisodiy o'zgarishlar, madaniy va diniy qadriyatlarni, ijtimoiy himoya tizimlari va oilaviy munosabatlarning o'zgarishi kabi omillar bilan bog'liq. Migrantlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash, ularning qadriyatlarni tizimini mustahkamlash va ijtimoiy integratsiyani osonlashtirish uchun samarali siyosatlar ishlab chiqilishi zarur. Ushbu tizimdan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda fuqarolarning migrant sifatida chet elga chiqishidan tortib, Vatanga qaytib, jamiyat va ijtimoiy-ma'naviy muhitga moslashishigacha bo'lgan barcha jarayonlarga e'tibor qaratiladi, ularning manfaatlari xalqaro miqyosda, har qanday sharoitda himoya qilinadi.

Globallashuv sharoitida davlat siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biri migratsiya siyosatidir. Migratsiya, tegishli boshqaruv amaliyoti orqali, 2030 yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish jarayonida ijobjiy natijalarga erishishga yordam beradi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mehnat migrantlari va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligini bir necha marotaba ta'kidlagan. U shunday dedi: "Bugun migrantlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda, ular nafaqat o'z oilalarini qo'llab-quvvatlaydi, balki O'zbekiston iqtisodiyotiga ham hissa qo'shadi. Bizning vazifamiz - ularning mehnat huquqlari ham respublika hududida, ham uning tashqarisida himoya qilinishi uchun sharoit yaratishdir."

Prezident shuningdek, migrantlarning xalqaro mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ularni kasbiy va til tayyorgarligini kuchaytirish zaruriyatiga ham urg'u beradi. Mahallalarda fuqarolar talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kurslarda o'qishi mumkin bo'lgan maxsus markazlarning ochilishi asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

BMTning migratsiya masalalari bo'yicha Maxsus ma'ruzachisi ta'kidlaganidek, migrantlar o'zlarining yangi vataniga katta foyda keltiradi: ular zaruriy ishlar bilan shug'ullanadi, soliq to'laydi va ko'p hollarda jamiyatni yanada rang-barang va dinamik qilib qo'yadigan yangi g'oyalarni olib keladi. Xalqaro migrantlar o'z kelib chiqishi bo'yicha mamlakatlarga ham manfaat keltiradi. Qoidalarga ko'ra, ular tez orada o'z oilalariga pul yuborishni boshlaydi va bu mablag'lar inson kapitalining shakllanishiga yordam berib, to'g'ri sarmoyalangan taqdirda, farovonlikni ta'minlaydi. Chet elda muvaffaqiyatga erishgan migrantlar o'z vataniga sarmoya krita boshlaydilar, bu nafaqat kapital oqimini va savdoni rivojlantirishni, balki g'oyalar, ko'nikmalar va texnologiyalarni rivojlantirish orqali bu mamlakatlarning jahon hamjamiyatiga integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Rivojlanayotgan davlatlar uchun migratsiya avvalo ish bilan ta'minlanish va ishsizlik darajasini pasaytirish imkoniyatidir. Shuningdek, migrantlarning pul o'tkazmalari iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Migrantlarning pul o'tkazmalari Markaziy Osiyo mamlakatlarida valyuta tushumlarining katta qismini tashkil qiladi. Shuning uchun aynan mehnat migratsiyasi katta amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdikhakimov, I. (2023). Trademark and copyright infringements in social media. International Conference on Legal Sciences, 1(1), 187-200.
2. Saipova, M. (2024). Mehnat migrantlarining farzandlarida yuzaga keladigan qiyinchiliklar. O'zbekiston jahon tillari universiteti.
3. Wonneberger, A., Stelzig, S., Weidtmann, K. (2024). Values and value change in the post-migrant society. Springer Wiesbaden.
4. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi (2024). Mehnat migrantlarining himoyasi va ijtimoiy sug'urta tizimi.